



# BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-MAY (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 65-223-80-42

[www.buxstat.uz](http://www.buxstat.uz)


## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 140 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 351 tasi yangi tashkil etilgan korxonalar sirasida kiradi.


### Jami faoliyat yuritayotgan

(1- iyun holatiga ko'ra)



### Jami yangi tashkil etilgan

(1- iyun holatiga ko'ra)





## Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalari tomonidan 10 663,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,2 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.






## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023- yilning yanvar-may oylarida 5 296,8 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,5 % ni ko'rsatmoqda.



## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 10 056,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.




## Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 104,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,0 % ga to'g'ri keldi.



## Yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha (O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)



### Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	782,0	322,0	-460,0
Gips, t.	67 569,0	203 286,0	135717,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	48 250,5	64 150,9	15900,4

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 056,5 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,3 % ini tashkil etdi.






## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2022- yilning yanvar-may oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,5 % (2,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 48,2 % (50,9 %) va quyi texnologiyasida – 49,3 % (47,0 %) kuzatildi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,9 % (2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 26,3 % (2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 108,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2022- yil yanvar-aprell oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 107,9 %) ni tashkil etdi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 3,2 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 73,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,8 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,0 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 387,3 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 24,6 % ga ko'paygan), 1 638,3 ming litr aroq mahsulotlari (14,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Mazut, ming t.	30,1	25,1	- 5,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	2 623,0	2 745	122,0
Paxta tolasi, t	38 873,0	38 051,0	- 822,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	36 803,1	9 261,4	- 27 541,7
Paxta chigiti, t.	57 495,0	62 284,0	4 789,0

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,3 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,4 % ga o‘sdidi va ishlab chiqarish hajmi 26,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 398,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 19,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 1 915,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 126,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 145,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 24,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,0 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2 434,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 110,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 362,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 142,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 126,8 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

**Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish** – foydalanish uchun tayyor bo‘lgan xom neft va ko‘mir mahsulotlarini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo‘lgan kreking va distillyatsiyalash yo‘li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 42,2 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 4 241,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 134,5 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 87,8 mlrd. so‘m kuzatildi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

**Elektr uskunalari ishlab chiqarish** – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.



2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,02 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,2 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 86,4 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 429,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,0 % ini) tashkil etgan.





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-may oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 97,7 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 97,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3,0	2,9	-0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	422,4	411,5	- 10,9



(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 73,8 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % iga)

*yanvar-may  
mlrd. so'mda*



*yanvar-may  
FHI, % da*



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 21,3 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 20,8 % ga pasayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6 687,7	8 112,3	1 424,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	206,1	163,2	- 42,9

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2 355,4 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,2 %, uning jami sanoatdagi ulushi 22,1 % ga to'g'ri keldi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari



56,1 %

2023-yil  
yanvar-may



31,7 %

2022-yil  
yanvar-may



2023- yilning yanvar-may oylarida viloyatida 1 320,3 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 5,3 % ga oshdi va 1 035,1 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,2 % ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 56,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 43,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 108,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 122,7 % ga to'g'ri keldi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar



43,9 %

2023-yil  
yanvar-may



68,3 %

2022-yil  
yanvar-may





## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

**Iste'mol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 355,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylari mos davriga nisbatan 105,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 22,1 % ga to'g'ri keldi.

*yanvar-may  
mlrd.so'mda*





*Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida  
iste'mol tovarlarining ulushi*

*yanvar-may  
o'sish sur'ati, % da*



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 170,0 ming so'm bo'ldi.



## Viloyatda nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Buxoro viloyatida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 035,1 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 97,2 % ni tashkil etdi.

*yanvar-may  
mlrd. so'mda*



*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi*


*yanvar-may  
o'sish sur'ati, % da*



## Viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati


Buxoro viloyatida oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining jami hajmi 1 320,3 mlrd. so'm bo'lib o'tgan yilning mos davrida nisbatan o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etdi.

*yanvar-may  
mlrd.so'mda*



*Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi*

*yanvar-may  
o'sish sur'ati, % da*






## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 823,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,9 % ni tashkil etadigan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,6 % ni tashkil etgan.

*yanvar-may  
mlrd. soʻmda*



*yanvar-may  
ulushi, % da*

